



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 19 - yanvar

21-8-121-Q/22

Termiz shahar hokimligi

Termiz shahar hokimining 2021-yil 11-dekabrda 256-8-121-Q/21-sonli qarori hamda 2021-yil 23-dekabrda 274-8-121-Q/21 qarorlariga o‘zgartirish, tuzatish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Termiz shahar hokimining 2021-yil 11-dekabrda 256-8-121-Q/21-sonli “Termiz shahridagi 12-sonli “Mehribonlik uyi”ning uy-joyga muhtoj bo‘lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ajratilgan xonadonlarga kirish orderi berish to‘g‘risida”gi 256-8-121-Q/21-sonli qarorining 5-bandidagi “Fuqaro Normamatova Shaxzoda Sharif qiziga mahalliy hokimiyat tasarrufidagi Termiz shahar, “Bog‘zor” mahallasi, Barkamol avlod ko‘chasi, 36-uyning, 2-qavatida joylashgan 23-xonadon, foydalanish maydoni 42,4 kv.metr bo‘lgan 1 (bir) xonali turar joyga yashash uchun kirish orderi berilsin” so‘zlari “Fuqaro Normamatova Shaxzoda Sharif qiziga mahalliy hokimiyat tasarrufidagi Termiz shahar, “O‘zbekiston” mahallasi, A.Navoiy ko‘chasi, 12-uy, 30-xonadon, 1-qavatda joylashgan, foydalanish maydoni 42,40 kv.metr bo‘lgan 1 (bir) xonali turar joyga yashash uchun kirish orderi berilsin” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. Termiz shahar hokimining 2021-yil 11-dekabrda 256-8-121-Q/21-sonli “Termiz shahridagi 12-sonli “Mehribonlik uyi”ning uy-joyga muhtoj bo‘lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ajratilgan xonadonlarga kirish orderi berish to‘g‘risida”gi 256-8-121-Q/21-sonli qarorining 7-bandidagi “Fuqaro Mallayev Burxoniddin Samandar o‘g‘liga mahalliy hokimiyat tasarrufidagi Termiz shahar, “O‘zbekiston” mahallasi, Alisher Navoiy ko‘chasi, 12-uyning 1-qavatida joylashgan 30-xonadon, foydalanish maydoni 42,40 kv.metr bo‘lgan 1 (bir) xonali turar joyga yashash uchun kirish orderi berilsin” so‘zlari “Fuqaro Mallayev Burxoniddin Samandar o‘g‘liga mahalliy hokimiyat tasarrufidagi Termiz shahar, “Bog‘zor” mahallasi, Barkamol avlod ko‘chasi, 36-uyning, 2-qavatida joylashgan 23-xonadon, foydalanish maydoni 42,78 kv.metr bo‘lgan 1 (bir) xonali turar joyga yashash uchun kirish orderi berilsin” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. Termiz shahar hokimining 2021-yil 11-dekabrda 256-8-121-Q/21-sonli “Termiz shahridagi 12-sonli “Mehribonlik uyi”ning uy-joyga muhtoj bo‘lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ajratilgan xonadonlarga kirish orderi berish to‘g‘risida”gi 256-8-121-Q/21-sonli qarorining 6-bandidagi “Fuqaro Xamrayev Shohrux Axror o‘g‘liga mahalliy hokimiyat tasarrufidagi Termiz shahar, “Bog‘zor” mahallasi, Barkamol avlod ko‘chasi, 28-uyning, 4-qavatida joylashgan 47-xonadon, foydalanish maydoni 39,90 kv.metr bo‘lgan 1 (bir) xonali turar joyga yashash uchun kirish orderi berilsin” so‘zlari “Fuqaro Xamrayev Shohrux Axror o‘g‘liga mahalliy hokimiyat tasarrufidagi Termiz shahar, “Bog‘zor” mahallasi, Barkamol avlod ko‘chasi, 38-uyning, 4-qavatida joylashgan 47-xonadon, foydalanish maydoni 39,90 kv.metr bo‘lgan 1 (bir) xonali turar joyga yashash uchun kirish orderi berilsin” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. Termiz shahar, “Guliston” mahallasi, Xorazm ko‘chasi, 36-uyda tashkil etilgan 3-sonli “Oilaviy bolalar uyi” rahbari Davlyatova Zarnigor Paxritdinovnaning 2022-yil 8-yanvardagi D-9-sonli arizasiga asosan Termiz shahar hokimining 2021-yil 23-dekabrda 274-8-121-Q/21-sonli qaroridagi “Primov Nurbek Doston o‘g‘li” so‘zlari “Ochilov Nurbek Doston o‘g‘li” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosarlari K.Ashurov va B.Djurayev zimmasiga yuklansin.

Hokim



Xudayberdiyev I. B.